

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

J.Sultonov	
Chingizxon va Jin davlati o'rtasidagi diplomatik va harbiy munosabatlarning tarixiy tahlili	224
M.A.Boltaboyev	
Sovet hokimiyatining O'zbekistondagi musulmon bo'lmagan aholiga nisbatan olib borgan zo'ravonlik siyosati	234
Sh.B.Jumayeva	
Globalashuv davrida boqiy marosim: Toshkent vohasi muqaddas qadamjo va mozorlarida ziyorat.....	239
M.R.Sodiqova	
Ipakchilikning O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rni (1991-2021-yillar).....	244
A.X.Nigmatov	
Shanxay hamkorlik tashkiloti vujudga kelishining tarixiy asoslari.....	251
M.B.Nazirov	
Rossiya imperiyasi ko'chirish siyosatining Farg'ona viloyati tub aholisining iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayotiga ta'siri.....	257
B.N.Rizayev, B.H.Ризаев, B.N.Rizaev	
A.N.Kasigin islohotlarining O'zbekiston qishloq xo'jaligida joriy etilishi	260
M.A.Maxmudov	
XX asrning 20-30-yillarida O'rta Osiyodagi madaniy obidalarni saqlab qolishda sredazkomstarisning faoliyati	266
I.B.Boxodirov	
Birinchi jahon urushi yillarida turkiston harbiy okrugida mahalliy qurolli kuchlar va harbiy asirlar masalasi	270
J.Sultonov	
Xorazm imperiyasining vujudga kelishi va Muhammad Xorazmshohning Mo'g'ullar bosqiniga qadar olib borgan harbiy-diplomatik strategiyasi	273
O.B.Nizomiddinov	
O'zbekiston SSRda lotin yozuvining joriy etilishi: muammo va ziddiyatlar (Farg'ona viloyati misolida)	279
O.H.Jaynarov	
O'zbekiston SSR advokaturasi tizimi: islohot va natijalar (XX asr 20-yillari).....	284
O.M.Normatov	
Farg'ona vodiysi qishloq xo'jaligi va savdo-sotiq munosabatlari tarixining ayrim jixatlari xususida	289
Y.A.Shukurillayev	
Buxoro amirligida qo'shin qarorgohlarining o'rnatilish taomillari.....	293

Z.X.Oxunova	
Yangi O'zbekistonda jinoyat va jazo sohasidagi liberallashuvni tadqiq etishdagi falsafiy yondashuvlar	297
X.J.Isomiddinov	
Jamiyatda millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ta'minlashda yoshlar tarixiy-falsafiy tafakkurini rivojlantirishning nazariy jihatlari.....	300
M.B.Nazirov	
Ko'chiruvchilik siyosatining Farg'ona viloyati tub xalqlarining siyosiy, fuqarolik ahvoliga ta'siri	304



UO'K: 94(575.1):908(575.1)

**KO'CHIRUVCHILIK SIYOSATINING FARG'ONA VILOYATI TUB XALQLARINING
SIYOSIY, FUQAROLIK AHVOLIGA TA'SIRI****ВЛИЯНИЕ РЕЛИГИОЗНОЙ ПОЛИТИКИ НА ПОЛИТИЧЕСКОЕ И ГРАЖДАНСКОЕ
ПОЛОЖЕНИЕ ТУБСКОГО НАРОДА ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ****THE EFFECT OF THE POLICY OF RELIGION ON THE POLITICAL AND CIVIL
SITUATION OF THE TUB PEOPLE OF FERGANA PROVINCE****Nazirov Mirjalol Baxodirjon o'g'li** 

Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur tadqiqotda Farg'ona viloyatidagi tub xalqlarning siyosiy va fuqarolik ahvoliga ko'chirish siyosatining ta'siri o'rganiladi. O'zbekiston Respublikasi ko'chirish siyosati, uning tarixiy konteksti, maqsadlari va amaliyotlari yoritiladi. Tadqiqot davomida Farg'ona viloyatidagi tub xalqlar – o'zbeklar, qoraqalpoqlar va boshqa etnik guruhlar uchun ko'chirish jarayonlarining ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy natijalari tahlil qilinadi.

Аннотация

В данном исследовании рассматривается влияние переселенческой политики на политическую и гражданскую ситуацию коренных народов Ферганской области. Будет освещена переселенческая политика Республики Узбекистан, ее исторический контекст, цели и практика. В ходе исследования анализируются социальные, политические и экономические результаты процессов переселения коренных народов Ферганской области – узбеков, каракалпаков и других этнических групп.

Abstract

This study examines the impact of the resettlement policy on the political and civil situation of indigenous peoples in Fergana region. The resettlement policy of the Republic of Uzbekistan, its historical context, goals and practices will be covered. During the research, the social, political and economic results of resettlement processes for the indigenous peoples of Fergana region - Uzbeks, Karakalpaks and other ethnic groups are analyzed.

Kalit so'zlar: siyosiy ahvol, ko'chirish, tub erli aholi, moddiy boyliklar, talon-taroj, hosildor erlar, harbiy, ijtimoiy ahvol, soliqlar, iqtisodiy qiyinchilik.

Ключевые слова: политическая ситуация, переселение, коренное население, материальные блага, разграбление, плодородные земли, военные силы, социальное положение, налоги, экономические трудности.

Key words: political situation, resettlement, indigenous population, material wealth, looting, fertile lands, military, social situation, taxes, economic hardship.

KIRISH

Farg'ona viloyatidagi mustamlakachilik tajribasi bilan bog'liq ravishda ta'kidlash lozimki, Rossiya imperiyasi siyosiy doiralarning viloyat tub madaniyatiga, xo'jalik va ijtimoiy hayot sohasida qadimiy an'analariga ega bo'lgan xalqlarning tilini, etnik va tarixiy o'ziga xosligini tugatish vazifasini qo'yganligi ma'lum. Rossiya mustamlakachiligi esa Volgabo'yi va Sibirni, so'ng boshqa hududlarni zabt etish bilan birga u erdagi aholining ko'pchiligini zo'rlik bilan pravoslav dinini qabul qilishga kiritish, qo'pol ravishda ruslashtirish siyosati olib borilgan Ivan Grozniy davridan boshlab nafaqat geostrategik va iqtisodiy jihatdan, balki ulug' rus va shuningdek, musulmonlarga qarshi ekspansiya ham edi. Rossiya imperiyasining hukmron doiralari va mafkuralari islom diniga, musulmonlarga qarshi ekspansiyani islom diniga e'tiqod qiluvchi xalqlarni siyosiy va g'oyaviy parokanda qilish uchun zarur, deb hisobladilar, chunki busiz hokimiyatning mustamlakachi tuzumini hamda Kaspiyorti viloyatiga ko'chirilayotgan rus aholining iqtisodiy, siyosiy mavqeining hukmronligini ta'minlab bo'lmasdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Adabiyotlar, tadqiqotlar va maqolalarda ko'chiruvchilik siyosatining tub xalqlarga ta'siri, ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar o'z ifodasini topgan. Farg'ona viloyatidagi ko'chirishlar va ularning

ILMIY AXBOROT

mintaqa aholisiga ta'siri bo'yicha olingan statistikalar va so'rovlar asosida tahlil qilinishi zarur. Ko'chiruvchilik siyosati o'zbek jamiyatida muhim ahamiyat kasb etdi va u Farg'ona viloyatidagi tub xalqlar, ya'ni o'zbeklar, davlat orqali amalga oshirilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar natijasida ular siyosiy va fuqarolik holatiga ta'sir ko'rsatadi. Ko'chiruvchilik, etnik munosabatlar, va millatchilik nazariyalarini o'rganish. Bu nazariyalar ko'chiruvchilar va mahalliy aholi o'rtasidagi o'zaro ta'sirlarni tushunishga yordam beradi. Tub xalqlar va ko'chiruvchilarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladigan muammolar va imkoniyatlarni aniqlash.

NATIJA VA MUHOKAMA

Mustamlaka ma'muriyati tomonidan aholining ijtimoiy, ma'naviy manfaatlariga hamda madaniyatiga nisbatan tashkiliy, mafkuraviy yondashuvi oldindan ishlab chiqilmagandi. Biroq ularning mazkur manfaatlarini inkor etish niyati istilodan oldinroq ham ma'lum edi. Milliy madaniyatni esa iqtisodiyot singari buyuk davlatchilik maqsadlariga bo'ysundirish nazarda tutilgandi.

Ilk pallada Rossiya hukmron doiralari hamda mustamlakachi ma'muriyatning Turkiston o'lkasi - jumladan, Kaspiyorti viloyati uchun maxsus mo'ljallangan yondashuv va faoliyat uslublari bo'lmaganligini, fikrimizcha, quyidagicha izohlash mumkin: Imperiya hukumati G'arbiy Yevropa davlatlari, eng avvalo Buyuk Britaniya va Fransiya bilan munosabatlar yanada murakkablashib ketishidan xavfsirab XIX asrning 60-yillari boshida qozoq xonliklariga kirib borishdan tashqari, Qo'qon xonligi hududining katta qismini istilo etish bilan vaqtincha kifoyalanish niyatida edi. Ustiga ustak, ma'lumki, 1865 yil avgustda Turkiston oblasti tuzilganidan keyin imperiya hukumati shu viloyat o'rniga Rossiya protektorati ostida bo'lishi lozim bo'lgan Toshkent xonligini tuzishni mo'ljallagan edi. Orenburg general-gubernatori Krijanovskiy 1866-yil bahorida shu maqsadda Toshkentga kelgandi. Biroq, bu faqat diplomatik nayrang edi, chunki Turkistonning ichki ma'muriy hududiy tuzilishining o'zi kelajakda sof harbiy vazifalarni amalga oshirishga moslashtirilgan edi [1;30].

Rossiya imperiyasi tub xalqlarning qurolli qarshilik ko'rsatishidan cho'chib 1874-yilda Shimol (Sibir), Shimoliy Kavkaz hamda Turkiston musulmon aholisi vakillarini harbiy xizmatga jalb etishni rasmiy ravishda taqiqladi. Biroq K.Kaufmanga bu chora ham, mustamlaka rejimini mustahkamlash bo'yicha ko'rilgan boshqa choralar ham etarli emasdek tuyuldi, shu bois u harbiy vazirga yozgan ma'ruzanomada: "Agar biz o'lkani bundan buyon ham shu tarzda boshqaradigan bo'lsak, uning aholisi bizni hukmdorlar deb hisoblamay, ixtiyorida har ehtimolga qarshi jiddiy harbiy kuch bo'lgan politsiya agentlari deb adolatli ravishda o'ylaydi" [2;12],- deb ta'kidlagandi. Garchi imperiya hukmron doiralari tomonida K.Kaufmann barcha islohotchilik takliflari hisobga olinmagan bo'lsada, 1886-yilda qabul qilingan "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risida Nizom"ga muvofiq ilgari liberal deb ovoza qilingan harbiy - xalq boshqaruvi ma'muriy - politsiya boshqaruviga almashtirildi [3;4]. Lekin bunda ham o'lka, oblast, uyezd boshliqlari, turli idoralar amaldorlari, avvalgidek, asosan Rossiya harbiylaridan tayinlanar edi.

Shu bilan birga Rossiyaning hukmron doiralarida, Turkistondagi imperiyacha istilochilik, mustamlakachilik siyosatini qo'llab - quvvatlab chiqqan rus ziyolilari muhitida ko'p millatli tub aholining madaniy, ma'naviy boyligi hamda an'analarning mafkuraviy ta'sirini zaiflashtirish usullari, shuningdek, islomni inkor etish va ruhoniylarning mashhur vakillarini mustamlaka hokimlari tarafiga og'dirish yoki pravoslav ruhoniylarining missionerlik faoliyatini tashkil qilish bilan barobarda musulmonlik salohiyatiga qarshi oshkora ta'sir ko'rsatish to'g'risidagi bahs-munozaralar tinmay davom etardi.

Turkiston general-gubernatorligi tuzilgandan, keyingi birinchi davridayoq o'lka va oblastlar ma'muriyati, musulmon ruhoniylar iyerarxiya tuzilmasini o'zgartirish hamda madrasa va maktablar ustidan ma'muriy va siyosiy nazorat o'rnatishga darhol kirishib ketishdi. Yirik shaharlarda shayxulislom, qozikalon lavozimlari bekor qilindi, an'anaviy sudlar - o'troq aholidagi qozi va ko'chmanchi aholidagi biy sudlari faoliyati sohasi cheklandi va hokazo. Mahalliy qishloq aholisining ekin maydonlari va yaylovlarining katta qismini bosib olish, ekspropriatsiya qilish, chorvadorlar ko'chib yuradigan mintaqani urug'-qabila jamoalarida boshqaruvning yangicha tartibini o'rnatish orqali hukmron doiralar jamoa ichki va jamoalararo aloqalarini, qishloq jamoasining an'anaviy ijtimoiy tuzilishini jiddiy ravishda zaiflashtirishga erishdilar. Bularning bari ko'chirib keltirilgan rus krestyanlarini imtiyozli joylashtirish va ular hukmron bo'lishi uchun iqtisodiy, siyosiy va ma'muriy sharoitlarni yaratardi hamda ayni mahalda tub o'troq va ko'chmanchi aholining huquqsiz ahvolini doimo namoyish etib turishi zarur edi.

Tub millatlar xalq ommasini siyosiy, fuqarolik huquqlaridan mahrum etish hamda mustamlakachi ma'muriyat, shuningdek ko'chirib keltirilgan Rossiya aholisi ko'pchiligining tub aholiga, ayniqsa, qishloq aholisiga munosabatidagi qo'pollik, mensimaslik illatlari bilan bir qatorda, tub joy xalqlarini talash, iqtisodiyotini ekspluatatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli hamda ma'naviy hayoti uchun zararli oqibatlarni keltirib chiqargani tabiiydir.

Binobarin, 1865-yil 6-avgustda tasdiqlangan "Turkiston viloyatini boshqarish to'g'risida muvaqqat Nizom"ga muvofiq joylarda ma'muriyatga, bo'lim boshliqlari, shuningdek harbiy komendantlar va ularga bo'ysunuvchi boshliqlari, shuningdek harbiy komendantlar va ularga bo'ysunuvchi rus amaldorlari jumlasidan tayinlanadigan mahalliy aholini boshqaruvchilari rahbarlik qilishar edi. Bevosita qishloq, ovullarda oqsoqollar, zakotchilar, mirshablar, ko'chmanchi hududlarda esa mannoplar va biylar mahalliy aholini boshqaruvchilari tomonidan tayinlanardi. Bunda o'troq aholi uchun qozilik sudlari, ko'chmanchi aholi uchun biy sudlari saqlanib qolindi.

Ammo ular majburiy ravishda uch yilga saylanar va o'lim jazosi yoki tan jarohati etkazish to'g'risida qarorni uzil-kesil qabul qila olmasdi. Biroq, ular ko'rayotgan nizo, jinoyatlar mustamlakachi hokimiyat manfaatlariga yoki rus fuqarolariga taalluqli bo'lsa, bunday ishlar barcha uyezd markazlarida hamda Toshkent shahrida tuzilgan Rossiyadagi kabi sudlarga oshirilardi [3;13].

Shaharlarda, xususi tub aholi istiqomat qiladigan qismlarda esa 1876-yilga qadar saylab qo'yiladigan ma'muriyat ish olib borgan. Biroq, uning faoliyati rus harbiylaridan iborat uyezd va viloyat boshliqlari tomonidan qat'iy boshqarilib, nazorat etilgan. Toshkent, Yangi Marg'ilon, Andijon va boshqa yirik shaharlarda eski shahar bilan yangi shahar o'rtasida jiddiy ma'muriy va siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan chegaralovchi chiziq ham o'tkazilgandi.

1876-yildan boshlab, Toshkent, Samarqand va Yangi Marg'ildan tashqari barcha shaharlar uyezd boshliqlari tasarrufiga berildi, vaholanki ular bungacha ham mustamlaka tizimini ta'minlash hamda korxonalar va shaharlar tub aholisidan soliq va o'lponlarni yig'ish uchun mas'ul edilar.

General-gubernatorlik tuzilgach, ayniqsa, ko'chirib keltirilgan ruslarni xo'jalik va fuqarolik jihatdan imtiyozli joylashtirish uchun imkoni boricha ko'proq qulay sharoit yaratish maqsadida, shuningdek, mustamlakachi hukmdorlarning tub aholiga munosabatini yanada qat'iyalashtirish uchun mahalliy boshqaruv va an'anaviy sudlar tizimini o'zgartirish bo'yicha choralar amalga oshirildi. Shaharlarda qozilik sudlari, ko'chmanchi hududlarning biy sudlari butkul rasmiy bosqichga aylantirildi, ularga olinadigan pul 100 so'mdan oshmaydigan da'volarnigina ko'rib chiqishga ruxsat berilgan edi. Bu sudlar, avvalgidek, nikoh va ajrashish bilan bog'liq ishlarni ko'rar, tub aholi bunday masalalarni ko'proq an'anaviy jamoa-urug' usulida hal etardi. Lekin umuman tub aholining deyarli 90 foizi nizo, da'vo va hokazolar bilan uyezd, oblast va o'lka hokimiyatlariga to'la hisob beradigan an'anaviy sudlarga murojaat qilardi. Endi barcha qozi va biylar, 1865-1867 yillardagi kabi tayinlanmasdi, balki, hokimiyatga ma'qul nomzodlar jumlasidan saylanardi. Bunda rus harbiylaridan iborat uchastka pristavlari, uyezd sudlari, oblast boshqaruvlarining hamda general-gubernator devonining sud bo'limlari, shuningdek, harbiy sud komissiyalari, ayniqsa, Turkistonda tez-tez joriy etilib turadigan favqulodda yoki harbiy holatlar davrida, shuningdek tub aholining hokimiyat boshboshdoqliklariga qarshi ko'targan isyoni ishtirokchilarining ishini ko'rib chiqishda shafqatsiz ish olib borardi.

Shu bilan bir qatorda chorizm va mustamlakachi ma'muriyat boshqaruv tizimi qamoqxonalar, hibsonalar va gaupvaxtalar (harbiylar va politsiyachilar uchun) tarmog'ini ham o'z ichiga olishi lozim, deb hisoblashardi. Shuning uchun 1868-yildanoq bunday muassasalar qurilishi uchun imperiya budjetidan muntazam ravishda katta mablag' ajratila boshlandi. Verniydagi qamoqxona va gaupvaxta, Pishpek, Avliyoota va Chimkentdagi hibsonalardan keyin 1872-yilda Toshkentda Turkistondagi eng yirik qamoqxona qurilishi tugallandi. 90-yillar boshiga kelib Farg'ona, Samarqand va Sirdaryo viloyatlarida 13 qamoqxona, shuningdek, shahar politsmeysterlari huzurida – Toshkent, Yangi Marg'ilon, Qo'qon, Xo'jand, Chimkent, Pishpek, Verniyda va deyarli barcha uyezd boshqarmalarida hibsonalar mavjud edi [5;4].

XULOSA

Bu holatlar - mustaqil ilmiy-tarixiy tadqiq qilib yoritishga arzigulik mavzudur. Biz bu mavzuga murojaat qilganimizning boisi shuki, chorizm va Turkiston ma'muriyati tub aholidan harbiy soliq, boshqa yig'imlar olish yordamida, bu qadar ko'p sonli harbiy asirlarni ta'minlash, eng avvalo, ularni boqishdek og'ir yukni uning (tub erli aholi) elkasiga ag'darishni mo'ljallagandilar, harbiy asirlarni arzon ishchi kuchi sifatida sanoat va qurilishda ishlatish esa mahalliy millatlar aholisi orasida ishsizlik kuchayishiga sabab bo'ldi [6;10].

ILMIY AXBOROT

Farg'ona viloyatida ko'chiruvchilik siyosatining tub xalqlar ahvoliga ta'siri ko'p qirrali bo'lib, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy aspektlarni o'z ichiga oladi. Ushbu jarayonlar jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Adabiyotlar tahlili orqali ushbu jarayonlarni chuqurroq o'rganish va yanada mukammal echimlar ishlab chiqish mumkin. Umuman, Turkiston tub xalqlariga qo'llanilgan xatti-harakatlarni oblastlarning harbiy gubernatorlari, uyezd boshliqlari nisbatan qo'pol shaklda davom ettirdilar. Bu yo'lda biror-bir sezilarli mutaraqqiy maqsad qo'yilmagan edi, chunki mustamlakachilar "o'z hukmdorlarining jabr-zulmiga asrlar davomida ko'nikib kelgan tub aholiga nisbatan insoniylik va gumanizm prinsiplarini qo'llab bo'lmaydi" [7;55], deb hisoblashardi.

So'nggi general-gubernator A.A.Kuropatkin e'tirofiga ko'ra, hukumat "tub joy aholini rivojlanishdan chetda tutib kelgan" [8;65] bo'lsada bu borada chorizm jiddiy natijani qo'lga kiritgan olmadi. Aksincha, tub millatli xalq, ommasining fuqarolik, siyosiy huquqsizligi o'z-o'zidan norozilik va qahr-g'azab uyg'otdi. Qattiq qarshilikga qaramay, ilg'or tub aholi ma'lum bir qismining siyosiy ongini va faolligini oshirishga sabab bo'ldi, deb qayd etish lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдурахмонова Н.А. Колониальная система власти в Туркестане (второй половина XIX-начало XX вв.); Автореф. дисс... докт. истор. наук.- Тошкент, 1994.-С.30.
2. ЎзРМА.ф.И-1, 27-рўйхат, 41-иш, 12 varaқ.
3. Положение об управление Туркестанским краем 12 июня 1886 года,-Спб.1886.
4. ЎзРМА.ф.И-450, 1-рўйхат, 16-иш, 30-31 varaқлар, 11-иш 1,8 1-13- varaқлар.
5. ЎзРМА.ф.И-270, 9-рўйхат, 68-иш, 2-4 varaқлар.
6. ЎзРМА.И-16-жамғарма, 1-рўйхат, 711-иш, 9-10 varaқлар.
7. Исхаков Ф. Национальная политика царизма в Туркестане. (1867-1917 гг.). Т., "Фан", 1997.-С.55.
8. Красный архив. Т.1.-М., 1925.-С.65.